



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-yanvar

11-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 28-dekabrda 900-son qarori ijrosi haqida” 9-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 28-dekabrda 900-son qarori ijrosi haqida” 9-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 28-dekabrda 900-son qarori ijrosi haqida” 9-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining 900-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 1-yanvardan boshlab kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida ishlab chiqarish amaliyotining quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tartibini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

o‘quvchilar uchun ishlab chiqarish amaliyoti va diplom oldi amaliyoti o‘rniga yagona ishlab chiqarish amaliyoti tizimini joriy etishi;

ishlab chiqarish amaliyotini o‘taydigan o‘kuvchilarga tegishli tashkilotlardagi malakali mutaxassislarni “ustoz” sifatida biriktirishi;

o‘quvchilarning amaliyot jarayonida egallangan amaliy ko‘nikmalarini ish beruvchilar bilan birgalikda baholash tizimini yo‘lga qo‘yishi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

amaliyot dasturlarini tegishli tarmoq va soha korxonalar (tashkilotlari) bilan kelishilgan holda ishlab chiqarish hamda tasdiqlashi;

amaliyotni tegishli tarmoq va soha korxonalarida (tashkilotlarida) tashkil etishi;

kasbiy ta'lim tashkilotlari va ish beruvchilarning amaliyotlarni tashkil etish bo'yicha vazifalarini belgilashi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

2025-yil 1-yanvardan boshlab kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tegishli tarmoq va soha korxonalarida (tashkilotlarida) tashkil etishi;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish jarayonida o'quvchilarga korxonalaridan (tashkilotlardan) tajribali mutaxassislar "ustoz" sifatida biriktirilishini ta'minlashi;

korxonalaridan (tashkilotlardan) biriktirilgan "ustoz"lar uchun ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish institutida "Germaniya tajribasi" asosida masofaviy (onlayn) o'quv kurslarini tashkil etishi;

har yili 1-oktabrga qadar "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy apparat kompleksiga kiritilgan korxonalar (tashkilot)lar bilan kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilari o'rtasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tash yuzasidan shartnomalar tuzish maqsadida hamkorlikni yo'lga qo'yishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hududdagi korxonalarning (tashkilotlarning) mavjud imkoniyatlari va takliflari asosida doimiy ravishda o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish yuzasidan shartnomalar tuzishda kasbiy ta'lim tashkilotlariga

ko'maklashishi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**